

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

№4 (2)

2026
APREL



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE


ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, aprel.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

BYUDJET SUBYEKTLARI ISHTIROKINI QISQARTIRISH ASOSIDA KREDIT RISKINI BOSHQARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH	16
PhD. Mahmudov Rahimjon Hamid o'g'li	
MINTAQA IQTISODIYOTI TARMOQLARINI KLASSTERLASHTIRISH SALOHİYATINI RIVOJLANTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISHNING EMPIRIK MODELİ: STATISTIK VA EKONOMETRIK TAHLIL	25
Ollokulova Feruza Mansurovna, Abdurahmonov Abdulaziz Maxmudovich	
XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARDA PUL OQIMLARI AUDITINI TAKOMILLASHTIRISHNING ZAMONAVIY MEXANIZMLARI	30
Atamurodov Saidmurad Yaxyoyevich, Sindarova Aziza Musurmon qizi	
TIJORAT BANKLARIDA KREDIT RISKLARINI BOSHQARISHNI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA SUN'İY INTELLEKT ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH	42
Xasanov Sardor Xazratkulovich	
IQTISODIY O'SISH SIFATI VA UNI KO'RSATKICHLARINING KONSEPTUAL ASOSLARI	50
Axmedov Xasanjon Muxamadovich	
IQTISODIY O'SISH SIFATI VA UNI KO'RSATKICHLARINING KONSEPTUAL ASOSLARI	55
Axmedov Xasanjon Muxamadovich	
ENERGIYA SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING KORXONALAR RENTABELLIGIGA TA'SIRI	60
Hayitov Jamshid Xolboyevich	
KREDITLASH MEXANIZMINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI VA UNING TARIXIY RIVOJLANISH BOSQICHLARI	65
Ortiqov Husan Usmonaliyevich	
DAVLAT SEKTORIDA ICHKI AUDIT FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH	70
Xamidova Zarifa Urol qizi	
ISTE'MOL NARXLARI INDEKSINI MODELLASHTIRISH VA PROGNOZLASHNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	74
Ismailova Shaxnoza Uktamovna	
XIZMATLAR SEKTORI RIVOJLANISHINING KAMBAG'ALLIKKA TA'SIRINI BAHOLASH METODOLOGIYASI VA KO'RSATKICHLAR TIZIMI	77
Dawletmuratov Adilbay Mirzaboyevich	
BIZNES JARAYONLARINI MONITORING QILISH TIZIMINING HOZIRGI HOLATI TAHLILI	84
Dadajonova Madina Ravshan qizi	
ISTE'MOL NARXLARI INDEKSINI MODELLASHTIRISH VA PROGNOZLASHNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	89
Ismailova Shaxnoza Uktamovna	
MINTAQA IQTISODIYOTI TARMOQLARINI KLASSTERLASHTIRISH SALOHİYATINI RIVOJLANTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISHNING EMPIRIK MODELİ: STATISTIK VA EKONOMETRIK TAHLIL	94
Ollokulova Feruza Mansurovna, Abdurahmonov Abdulaziz	
ENERGIYA SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING KORXONALAR RENTABELLIGIGA TA'SIRI	100
Hayitov Jamshid Xolboyevich	
IMPROVING THE EFFICIENCY OF BANKS' GREEN FINANCING IN UZBEKISTAN AND KAZAKHSTAN	105
Maxmudov Rahimjon	
MAHALLIY BUDJETLAR MUSTAQILLIGINI TAKOMILLASHTIRISH VA YANADA OSHIRISH	109
Abduraxmonova Gulmira	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA MOLIYAVIY HISOBOTLARNI SHAKLLANTIRISH: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR	114
Teshabayev Dilmurod Boxodir o'g'li	



FARG 'ONA VILOYATINING INNOVATSION RIVOJLANISHI.....	120
Tuychieva Odina Nabiyevena	
INDICATORS OF INNOVATIVE DEVELOPMENT OF THE "GREEN" ECONOMY.....	131
Mirzaev Kulmamat Djanzakovich	
KREDITLASH MEXANIZMINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI VA UNING TARIXIY RIVOJLANISH BOSQICH LARI.....	140
Ortiqov Husan Usmonaliyevich	
KORPORATIV BOSHQARUVNING XALQARO TAJRIBASI VA UNING QIYOSIY TAHLILI	144
Shakirova Gulbaxor Sharipdjanovna	
TIJORAT BANKLARIDA KREDIT RISKLARINI BOSHQARISHNI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH	149
Xasanov Sardor Xazratkulovich	
IQTISODIY XAVFSIZLIKNING INSTITUSIONAL ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISHNING XORIJ DAVLATLAR TAJRIBASI	156
Odinayev Ravzatullo Asatulloevich	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING MOLIVAVIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	161
Karimov Alibek Valievich	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA FRANCHAYZING TIZIMINI RIVOJLANTIRISHDA PLATFORMA MODELLARI VA ULARNING SAMARADORLIGINI BAHOLASH	167
Xodjaye Anvar Rasulovich, Nasimov Dilshodbek Hotam o'g'li	
"O'ZBEKISTON GTL" MAHSULOTLARNINING FIZIK-KIMYOVIY XOSSALARI VA ULARNI KOMPOUDIRLASH ASOSIDA EKOLOGIK TOZA YOQILG'ILAR OLISH ISTIQBOLLARI	173
Ro'ziyev Aliakbar, Hayitov Ruslan, Mavlonov Shohrux	
HUDUDIY MEHNAT BANDLIGINI TA'MINLASHDA AVTOSERVIS KORXONALARINING ROLI	179
Marqayev Xurshid Aliqulovich	
ASOSIY VOSITALAR AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH.....	183
Zaripova Sayohat Zafarovna	
XIZMATLAR SOHASINI BOSHQARISHDAGI MUAMMOLAR VA YECHIMLAR: AGROTURIZM VA RAQAMLI XIZMATLAR ASOSIDA TAHLIL (ANDIJON VILOYATI MISOLIDA)	188
Oktamjonova Gulira'no Ikromjon qizi	
BUXORO VILOYATI UY XO'JALIKLARI HAYOT SIFATI VA IJTIMOIIY-IQTISODIY AHVOLI: SO'ROVNOMA NATIJALARI TAHLILI	192
Nizomov Asliddin, Musulmonova Shahlo, Izzatullayeva Ma'mura	
DIRECTIONS FOR TOURISM DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN BASED ON DIGITAL TECHNOLOGIES..	199
Mirzaev Kulmamat Djanzakovich	
QORA METALLURGIYA SANOATI VA ULARNING ISHLATILISHI	203
Sarimsakov Alisher Ubaydullaevich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA AHOLI BANDLIGINING IQTISODIY-STATISTIK TAHLILI	209
Yusupov Farhod Adamboyevich	
TASVIRLARDAN YO'L BELGILARINI TANIB OLISH ALGORITMLARI VA DASTURIY VOSITASINI ISHLAB CHIQISH	214
Toyirov Akbar Xasanovich, Yuldoshov Abdurahmon Baxtiyorovich	
OLIY TA'LIMNI MOLIVALASHTIRISHNING ILG'OR XORIJIY TAJRIBASI: SINGAPUR MISOLIDA	218
Kurbanov Baxodir Negmatullayevich	



MA'LUMOTLARGA ASOSLANGAN TURIZM BOSHQARUVI: O'ZBEKISTONDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONLARI.....	222
Ashurova Shaxnoza Almasovna	
DAVLAT XARIDLARI BO'YICHA BYUDJET MABLAG'LARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI ICHKI AUDITNING ANALITIK KO'RSATKICHLARI ASOSIDA BAHOLASH.....	226
Meliboyev Askar Eshmuratovich	
ГЛИНИСТЫЕ СЛАНЦЫ ЦЕНТРАЛЬНОГО И ЮЖНОГО УЗБЕКИСТАНА КАК СЫРЬЕВАЯ СМЕСЬ ДЛЯ ПРОИЗВОДСТВА ПОРТЛАНДЦЕМЕНТА.....	231
Карабаев А.М., Абдуллаева Д.Ф., Абдуллаев У.Х. Андакулова Н.Н.	
ЦИФРОВАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ СИСТЕМЫ МЕНЕДЖМЕНТА КАЧЕСТВА НА ПРОМЫШЛЕННОМ ПРЕДПРИЯТИИ	237
Садиков Жaxonгир Носирджанович, Даулетмуратова Дилбар Калмуқанмед кизи	
РАЗРАБОТКА МЕХАТРОННОГО МОДУЛЯ ДЛЯ ВЫРАВНИВАНИЯ ПОВЕРХНОСТИ МЕТАЛЛА ПОСЛЕ ЗАЛИВКИ.....	243
Мирджураев Сарвар Алишер угли	
MAHALLIY BUDJET DAROMADLARINI SHAKLLANTIRISHDA YASHIRIN IQTISODIYOTNING TA'SIRI ..	246
Isoqov Zafarjon Zokirjonovich	
AGROKLASTERLAR SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING EKONOMETRIK MODELLARI	250
O'rinboyev Ulug'bek Otabekovich	
ИССЛЕДОВАНИЕ ПОРИСТОЙ СТРУКТУРЫ И ВЛАГОПОГЛОЩАЮЩИХ СВОЙСТВ КОМПОЗИТНОГО ВЯЖУЩЕГО	259
Тургунбаев Уринбек, Шарипова Дилафруз, Худойбердиев Жамшид	
ИССЛЕДОВАНИЕ НАПРЯЖЕННО-ДЕФОРМИРОВАННОГО СОСТОЯНИЯ ЯЧЕЙКИ СВЕТОПРОЗРАЧНОГО ОГРАЖДЕНИЯ ПРИ ВОЗДЕЙСТВИИ ЛОКАЛЬНОЙ СЕЙСМИЧЕСКОЙ НАГРУЗКИ.....	265
Давронов Олимбек, Туляганов Азиз	
PAHTA-TO'QIMACHILIK KLASTERLARNING EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISH YO'NALISHLARI	271
Mamasoliyev G'ayratbek Maxamadyusupovich	
RAQAMLI IQTISODIYOTNING TURIZMDA MOHIYATI VA AHAMIYATI.....	276
Abdullayeva Zulfiya Izzatovna	
MINTAQAVIY SANOAT KORXONALARINING BIZNES JARAYONLARINI TAHLIL QILISH VA BAHOLASHNING ZAMONAVIY USULLARI (BPM, LEAN VA SIX SIGMA YONDASHUVLARI MISOLIDA) ..	279
Azimova Maxfuza Rashidovna	
QURILISH SANOATI KORXONALARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA ULARNI EKOLOGIK BOSHQARISH TAMOIYILLARI	284
Xolov Xamza Tojiddinovich	
O'ZBEKISTONDA AHOLINI QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI BILAN TA'MINLASHNING IQTISODIY MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH: EKONOMETRIK TAHLIL VA PROGNOZLASH	292
Matjonov Bekjon Ravshonbekovich, Ibragimova Nodira Kadamovna	
A THEORETICAL MODEL LINKING GENDER EQUALITY AND MANAGEMENT EFFICIENCY.....	297
Ochilova Intizor Sadikovna	
QIMMATLI QOG'OZLAR PORTFELIDAN KUTILAYOTGAN DAROMADGA TA'SIR QILUVCHI OMILLARNI EKONOMETRIK MODEL ORQALI BAHOLASH.....	303
Sindarov Fazliddin Kaxramonovich	
MAMLAKAT KIMYO SANOATIDAGI KORXONALAR FAOLIYATIDA RESURSLARDAN SAMARALI FOYDALANISH JARAYONI VA ULARNING TAHLILI.....	312
Odilova Malika Abdushukur qizi	



RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI ISHLAB CHIQARISH SANOATIGA JORIY ETISH	317
Abdivoyitova Sarvinoz Abduxayit qizi, Maxmudov Abrorxon Axmadxonovich	
NODAVLAT OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA BOSHQARUV HISOB TIZIMINI TASHKIL ETISHNING NAZARIY VA AMALIY JIHATLARI	321
Xojiboyev Muxiddin Shodimuxamedovich	
TIJORAT BANKLARINING INVESTITSION FAOLLIGINI OSHIRISHNING HOZIRGI HOLATI TAHLILI	326
Dagarov Bekzod Muzaffar o'g'li	
O'ZBEKISTON BANK TIZIMIDA RAQOBAT MUHITINING SHAKLLANISH BOSQICHLARI VA TENDENSIYALARI	332
Qulmetov Mansurbek Ro'zmatovich	

O'ZBEKISTON BANK TIZIMIDA RAQOBAT MUHITINING SHAKLLANISH BOSQICHLARI VA TENDENSIYALARI

Qulmetov Mansurbek Ro'zmatovich
Xalqaro Nordik universiteti,
mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston bank tizimida raqobat muhitining 1991–2026-yillardagi shakllanish bosqichlari va asosiy tendensiyalari tahlil qilingan. Tadqiqotda banklar soni dinamikasi, davlat va xususiy banklar ulushi hamda HHI, CR5, Lerner indeksi kabi raqobat ko'rsatkichlari o'rganildi. Muallif tomonidan tegishli xulosalar shakllantirilib, amaliy tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: bank tizimi, banklararo raqobat, raqobat muhiti, HHI indeksi, CR5, Lerner indeksi, davlat banklari, FinTech.

Abstract. This article analyzes the stages of formation and the main tendencies of the competitive environment in the banking system of Uzbekistan during 1991–2026. The study examines the dynamics of the number of banks, the share of state-owned and private banks, as well as competition indicators such as HHI, CR5, and the Lerner index. The author formulates conclusions and provides practical recommendations.

Key words: banking system, interbank competition, competitive environment, HHI index, CR5, Lerner index, state-owned banks, FinTech.

Аннотация. В данной статье проанализированы этапы формирования и основные тенденции конкурентной среды в банковской системе Узбекистана в 1991–2026 годах. В исследовании рассмотрены динамика количества банков, доля государственных и частных банков, а также показатели конкуренции — HHI, CR5 и индекс Лернера. Автором сформулированы выводы и разработаны практические рекомендации.

Ключевые слова: банковская система, межбанковская конкуренция, конкурентная среда, индекс HHI, CR5, индекс Лернера, государственные банки, FinTech.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasining 1991-yil 1-sentyabrda mustaqilligini e'lon qilishi bank tizimida tub o'zgarishlarning boshlanish nuqtasi bo'ldi. Sobiq Ittifoq davrida mavjud bo'lgan monobank tizimi — unda Davlat banki ham emissiya, ham tijorat faoliyatini bir vaqtda amalga oshirar edi — bozor iqtisodiyoti talablariga to'liq mos kelmas edi. Barcha kreditlash jarayonlari markazlashtirilgan rejalar asosida olib borilar, foiz stavkalari bozor mexanizmlari orqali emas, markazlashgan tartibda belgilanar edi. Bu tizimda raqobat tushunchasi amalda deyarli mavjud emas edi.

O'zbekiston bank tizimining rivojlanishini raqobat muhiti shakllanishi nuqtai nazaridan besh bosqichga bo'lib o'rganish metodologik jihatdan maqsadga muvofiq hisoblanadi. Har bir bosqich o'ziga xos makroiqtisodiy muhit, institutsional islohotlar, raqobat darajasi hamda uning asosiy determinantlari bilan tavsiflanadi.

2026-yil 1-yanvar holatiga ko'ra O'zbekistonda 36 ta tijorat banki faoliyat yuritmoqda. Ulardan davlat ishtirokidagi banklar sektor kapitalining 60,16 foizini va aktivlarining 63,5 foizini tashkil etadi¹. Mazkur maqolada bank tizimida raqobat muhitining shakllanish bosqichlari va so'nggi yillardagi asosiy tendensiyalari tizimli ravishda tahlil qilinadi.

MAVZUGA OID ADABIYOT SHARHI

Banklararo raqobatni baholash va bank tizimi rivojlanishi masalalari xorijiy hamda mahalliy iqtisodchi olimlar tomonidan keng tadqiq etilgan. Xorijiy tadqiqotchilar orasida John Panzar, James Rosse, Jan Boone, Abba Lerner, Thorsten Beck, Aslı Demirgüç-Kunt, Ross Levine, Luc Laeven, Hans Degryse, Steven Ongena,

1 O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy sayti ma'lumotlari. www.cbu.uz (kirish sanasi: 2026-yil 15-fevral).



Michiel Van Leuvensteijn, Jacob Bikker, Klaus Schaeck va Martin Čihák kabi olimlarning ishlari bank sektorida raqobatni baholashning nazariy va metodologik asoslarini yaratdi.

Stijn Claessens va Luc Laeven 50 dan ortiq mamlakatni qamrab olgan tadqiqotda bank faoliyatiga qo'yilgan tartibga solish cheklovlarining kuchliligi raqobat muhitini belgilashda bozor konsentratsiyasidan ham kuchliroq omil hisoblanishini empirik jihatdan asoslab berdilar². Bu xulosa O'zbekiston bank tizimi tahlili uchun muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Thorsten Beck, Asli Demirgüç-Kunt va Ross Levine bozor konsentratsiyasi va raqobat darajasi bir-birining muqobili emas, balki mustaqil o'lchovlar ekanligini ko'rsatdilar³. Xavier Vives raqobat va barqarorlik munosabatini tartibga solish tizimi bilan bog'liq holda tahlil qilib, kuchli prudensial tartibga solish raqobatning ehtimoliy salbiy oqibatlarini yumshatishini asoslab berdi⁴. Rafael La Porta, Florencio Lopez-de-Silanes, Andrei Shleifer va Robert Vishny tadqiqotlariga ko'ra, davlatning bank sektoridagi yuqori ishtiroki uzoq muddatda raqobat muhiti va moliyaviy rivojlanish sur'atlariga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bu xulosa O'zbekistonning hozirgi 63,5 foizlik davlat ulushi sharoitida alohida ahamiyat kasb etadi⁵.

O'zbekistonlik iqtisodchi olimlar ham bank tizimi va raqobat muammolarini chuqur o'rgangan. F.I. Mirzayev O'zbekistonda banklararo raqobatni shakllantirishning konseptual asoslarini ishlab chiqqan va milliy bank tizimida raqobat muhitining institutsional jihatlarini tadqiq etgan⁶. N.X. Jumayev O'zbekiston banklarida kredit qo'yilmalarining tarkibi hamda ularni boshqarishdagi risklarni o'rgangan, uning ishlari kredit bozoridagi raqobat shartlarini tushunish uchun muhim asos yaratadi⁷.

Sh.Z. Abdullayeva o'z ilmiy tadqiqotlarida bank risklari sharoitida tijorat banklarining kredit portfelini diversifikatsiyalash, sanoat korxonalari investitsiya faoliyatini moliyalashtirish tizimini rivojlantirish va ularning tarmoq xususiyatlaridan kelib chiqqan holda raqobat muhitini shakllantirish masalalarini yoritgan⁸. O.B. Sattarov O'zbekiston Respublikasi bank tizimi barqarorligini ta'minlash metodologiyasini takomillashtirish bo'yicha tadqiqotlar olib borgan⁹. O.A. Ortiqov tijorat banklari xizmatlar bozorida raqobatni rivojlantirish yo'llarini tahlil qilib, raqobatning sifat ko'rsatkichlarini baholashga e'tibor qaratgan¹⁰. Yuqorida keltirilgan xorijiy va mahalliy olimlarning ishlari muhim ilmiy va uslubiy manba hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotni amalga oshirish jarayonida belgilangan maqsadlarga erishish uchun tarixiy-evolyutsion tahlil, mantiqiy va tarkibiy tahlil usullari, guruhlash, iqtisodiy-statistik tahlil hamda qiyosiy taqqoslash usullaridan samarali foydalanildi. O'tkazilgan tahlillar natijasida O'zbekiston bank tizimida raqobat muhitining shakllanishi besh bosqichga ajratildi va har bir bosqichning institutsional, makroiqtisodiy hamda bozor xususiyatlari aniqlandi.

Empirik bazani O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy ma'lumotlari, Xalqaro Valyuta Jamg'armasi (XVF) hisobotlari, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (EBRD) tadqiqotlari hamda 2021–2025-yillardagi statistik ko'rsatkichlar tashkil etdi.

Raqobat darajasini baholashda Herfindahl–Hirschman Index (HHI), CR5 (eng yirik beshta bankning aktivlardagi ulushi) va Lerner Index qo'llanildi.

2 Claessens S., Laeven L. What drives bank competition? Some international evidence // *Journal of Money, Credit and Banking*. — 2004. — Vol. 36, No. 3. — P. 563–583.

3 Beck T., Demirgüç-Kunt A., Levine R. Bank concentration, competition, and crises: First results // *Journal of Banking & Finance*. — 2006. — Vol. 30, No. 5. — P. 1581–1603.

4 Vives X. Competition and Stability in Banking: The Role of Regulation and Competition Policy. — Princeton University Press, 2016. — 328 p.

5 La Porta R., Lopez-de-Silanes F., Shleifer A. Government Ownership of Banks // *Journal of Finance*. — 2002. — Vol. 57, No. 1. — P. 265–301.

6 Mirzayev F.I. O'zbekistonda banklararo raqobatni shakllantirishning konseptual asoslari: Iqtisod fanlari doktori dissertatsiyasi avtoreferati. — Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi, 2009. — 41 b.

7 Jumayev N.X. O'zbekiston banklarida kredit qo'yilmalarining tarkibi va ularni boshqarishdagi risklar // *Iqtisodiyotda innovatsiya*. — 2020. — №3.

8 Abdullayeva Sh.Z. Bank risklari sharoitida tijorat banklarining kredit portfelini diversifikatsiyalash: Iqtisodiyot fanlari doktori dissertatsiyasi avtoreferati. — Toshkent: O'zR Bank-moliya akademiyasi, 2020. — 76 b.

9 Sattarov O.B. O'zbekiston Respublikasi bank tizimi barqarorligini ta'minlash metodologiyasini takomillashtirish: Iqtisodiyot fanlari doktori dissertatsiyasi avtoreferati. — Toshkent, 2018. — 32 b.

10 Ortiqov O.A. Tijorat banklari xizmatlar bozorida raqobatni rivojlantirish yo'llari: 08.00.07 — "Moliya, pul muomalasi va kredit" iqtisodiyot fanlari doktori (Doctor of Science) dissertatsiyasi avtoreferati. — Toshkent, 2024. — 24 b.



TAHLIL VA NATIJALAR

Mustaqillikning dastlabki yillarida O'zbekiston bank tizimini qayta qurish uchun zarur huquqiy asos yaratildi. 1991-yilda "O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risida"gi va "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi qonunlar qabul qilinib, ikki pog'onali bank tizimi rasmiylashtirildi¹¹. Dastlabki tijorat banklari sobiq ixtisoslashtirilgan davlat banklari negizida qayta tashkil etildi: Xalq banki, Agrobank, O'zsanoatqurilishbank, O'zbekiston Milliy banki va boshqalar.

1991–1994-yillarda banklar soni 3 tadan 14 taga yetdi, biroq bu miqdoriy o'sish hali sifat jihatidan to'liq o'zgarishni anglatmas edi. Yillik inflyatsiya 1993-yilda 1 281 foizga yetdi va bunday sharoitda HHI ko'rsatkichi 6 000–7 000 oralig'ida bo'lib, yuqori konsentratsiyalashgan bozor tuzilmasini ifodaladi.

1995-yildan boshlab bank tizimi miqdor jihatidan jadal o'sib, banklar soni 28–31 taga yetdi. Ushbu davrda xususiy va xorijiy banklar bozorga kirib keldi: Asaka Bank (1995), Hamkorbank, ABN AMRO, Citibank, National Bank of Pakistan kabi xalqaro banklar O'zbekiston bozoriga qadam qo'ydi. Xalqaro Valyuta Jamg'armasining 2000-yilgi bahosida davlat banklarining imtiyozlari — davlat kafolatlari, arzon moliyalashtirish resurslari, byudjet hisobvaraqlariga ustuvor kirish imkoniyatlari — xususiy banklarning teng raqobat sharoitida faoliyat yuritish imkoniyatlarini cheklagani qayd etilgan¹². HHI ko'rsatkichi bu davrda 3 400–3 500 oralig'ida bo'lib, oligopolistik tuzilma saqlanib qoldi.

2003–2016-yillarda O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki prudensial tartibga solishni sezilarli darajada kuchaytirdi. Muammoli va kichik banklar qayta tashkil etilishi natijasida banklar soni 31 tadan 27–28 taga qisqardi. 2013-yildagi PQ-1930-sonli qaror bilan minimal ustav kapitali talabi oshirildi¹³. 2008–2009-yillardagi Global Financial Crisis davrida davlat banklari hukumat tomonidan qo'shimcha kapitallashtirildi va davlat buyurtmalari bilan qo'llab-quvvatlandi, bu esa ularning raqobatdagi ustunliklarini mustahkamladi. Natijada davlat banklarining aktivlar ulushi bu davrda 63–66 foiz atrofida barqarorlashdi.

2017-yil O'zbekiston iqtisodiy tarixida muhim burilish nuqtasi bo'ldi. 2017-yil sentyabrda valyuta bozorini liberallashtirish, chet el valyutasi operatsiyalarini erkinlashtirish va iqtisodiyotni ochish siyosati bank sektorida ham tub o'zgarishlar uchun zamin yaratdi. 2018-yil 21-dekabrda PQ-4071-sonli qaror qabul qilindi¹⁴. 2020-yil 12-mayda PF-5992-sonli Farmon bilan 2020–2025-yillarga mo'ljallangan bank tizimini isloh qilish strategiyasi tasdiqlandi¹⁵.

2024–2026-yillar O'zbekiston bank tizimining eng dinamik davrini tashkil etdi. Ushbu bosqichning eng muhim yangiliklaridan biri — Uzum Bank tomonidan 2024-yilda to'liq bank litsenziyasining olinishi bo'lib, bu FinTech va an'anaviy bank sektori o'rtasidagi integratsiyani yangi bosqichga olib chiqdi¹⁶. Islom moliyasi yo'nalishida Ipak Yo'li Bank litsenziyasining berilishi yangi raqobat segmentini shakllantirdi. Bank sektori aktivlari sezilarli darajada o'sdi, kapital yetariligi ko'rsatkichi 2026-yil 1-yanvar holatiga 18,3 foizni tashkil etdi.

Banklar sonining 35 yillik dinamikasi quyidagi rasmda besh bosqich kontekstida ko'rsatilgan (1-rasm).

11 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1991-yil 15-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risida"gi va 1991-yil 15-fevraldagi "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi qonunlari (yangi tahriri 1995–1996).


12 International Monetary Fund. Republic of Uzbekistan: Financial Sector Assessment. — Washington: IMF, 2000.

13 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013-yil 26-noyabrdagi PQ-1930-son qarori bilan tijorat banklari uchun minimal ustav kapitali talabi oshirildi.

14 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 21-dekabrda PQ-4071-son "Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash, faoliyati samaradorligini oshirish va kredit siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori.

15 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi PF-5992-son "2020–2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasi bank tizimini isloh qilish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni.

16 Markaziy bank ma'lumotlariga ko'ra, "Uzum Bank" 2024-yilda to'liq bank litsenziyasini olgan birinchi raqamli FinTech kompaniya hisoblanadi.



1-rasm. O'zbekiston bank tizimida banklar soni dinamikasi bosqichlar bo'yicha (1991–2026)¹⁷

1-rasmda banklar sonining 35 yillik dinamikasi besh bosqich kontekstida ko'rsatilgan. Grafik bir necha muhim xulosalarni ko'rgazmali tarzda tasdiqlaydi.


Birinchidan, banklar soni 1991-yildagi 3 tadan 2026-yilga kelib 36 taga yetib, 12 baravarga oshdi. Ushbu o'sishning asosiy qismi 1991–1995-yillarda (monobank tizimidan chiqish davri) va 2017–2026-yillarda (islohotlar bosqichi) kuzatildi.

Ikkinchidan, davlat banklari soni nisbatan barqaror bo'lib (6–8 ta), xususiy va xorijiy banklar soni esa izchil oshib bordi.

Uchinchidan, 2023-yildan boshlab davlat banklari sonining 8 tadan 6 taga qisqarishi xususiylashtirish jarayonining amaliy bosqichga o'tganini ko'rsatadi.

To'rtinchidan, III bosqichda (2003–2016) banklar sonining 31 tadan 27–28 taga qisqarishi konsolidatsiya siyosatining natijasi bo'lib, miqdoriy kamayish sifat jihatidan mustahkamlanishni anglatadi.

Bank sektori asosiy ko'rsatkichlari bo'yicha davlat va xususiy banklarning bozor ulushi quyidagi rasmda taqqoslab ko'rsatilgan (2-rasm).



2-rasm. Bank sektori ko'rsatkichlari bo'yicha davlat va xususiy banklar ulushi (2026-yil 1-yanvar holatiga)¹⁸

2-rasmda to'rtta asosiy ko'rsatkich bo'yicha davlat va xususiy banklarning bozor ulushi taqqoslab ko'rsatilgan. Grafik shuni ko'rsatadiki, davlat banklari aktivlar (63,5%), kapital (60,2%) va depozitlar (58,2%) bo'yicha yetakchi mavqeni saqlab turibdi.

Muhim metodologik kuzatuv shundan iboratki, davlat banklarining kreditlar bo'yicha ulushi (55,3%) aktivlar ulushidan (63,5%) pastroq darajada. Bu esa xususiy banklarning kreditlash sohasida nisbatan faolroq ishtirok


¹⁷ Manba: O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy sayti (cbu.uz) ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

¹⁸ Manba: O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, "Bank tizimi statistikasi" bo'limi (2026-yil 1-yanvar holatiga) ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

etayotganini ko'rsatadi. Kreditlar segmentida xususiy va xorijiy banklar ulushi (44,7%) ushbu bozor yo'nalishida raqobat muhitining bosqichma-bosqich rivojlanayotganidan dalolat beradi.

Qizil nuqtali chiziq O'zbekiston — 2030 strategiyasida belgilangan 50 foizlik maqsadli¹⁹ ko'rsatkichni ifodalaydi. Hozirgi holat (63,5%) bilan maqsadli daraja (50%) o'rtasida 13,5 foiz punkt farq mavjud bo'lib, bu kelgusida amalga oshiriladigan islohotlar uchun muhim yo'nalish sifatida namoyon bo'ladi.

Bank sektori uchta asosiy raqobat ko'rsatkichining 11 yillik tendensiyasi quyidagi rasmda umumlashtirilgan (3-rasm).



3-rasm. Bank sektori raqobat ko'rsatkichlari dinamikasi (HHI, CR5, Lerner indeksi), 2015–2025²⁰

3-rasm uchta raqobat ko'rsatkichining 11 yillik tendensiyasini birlashtiradi. Herfindahl–Hirschman Index (HHI) 2015-yildagi 3 450 dan 2025-yilga kelib 3 010 ga tushib, 12,8 foizga kamaydi.

CR5 aktivlar ulushi 73,0 foizdan 65,2 foizga pasayib, 7,8 foiz punktga qisqardi. Lerner Index esa 0,52 dan 0,44 ga tushib, bozor kuchining asta-sekin kamayishini, ya'ni raqobat muhitining yaxshilanib borayotganini ko'rsatmoqda.

Sarg'ish rang bilan ajratib ko'rsatilgan IV bosqichda (2017–2020) uchala ko'rsatkich ham eng tez pasaydi. Bu holat keng ko'lamli islohotlar va FinTech raqobatchilarining bozorga kirib kelishi bilan izohlanadi.

Biroq HHI ko'rsatkichining 3 000 dan yuqori qiymatda saqlanib qolayotgani oligopolistik bozor tuzilmasi davom etayotganini ko'rsatadi hamda raqobat muhitini yanada takomillashtirish uchun qo'shimcha imkoniyatlar mavjudligini tasdiqlaydi.

O'zbekiston bank tizimida raqobat muhitining shakllanish bosqichlari quyidagi jadvalda umumlashtirilgan (1-jadval).

1-jadval

O'zbekiston bank tizimida raqobat muhitining shakllanish bosqichlari (1991–2026)²¹

Bosqich	Davr	Banklar soni	Asosiy voqealar va islohotlar	Raqobat muhiti xarakteri
I bosqich	1991–1994	3→14 ta	Markaziy bank tashkil etildi; davlat banklari negizida tijorat banklari qayta tashkil etildi; dastlabki xususiy banklar paydo bo'ldi	Monopolistik tuzilma; raqobat deyarli yo'q; giperinflyatsiya (1993: 1 281%); HHI ≈ 6 000–7 000
II bosqich	1995–2002	28–31 ta	Xususiy banklar tez rivojlandi; ABN AMRO, Citibank, NBP bozorga kirdi; "Asaka", "Hamkorbank", "Ipoteka-bank" tashkil etildi	Past-o'rtacha raqobat; davlat banklari dominant; HHI ≈ 3 400–3 500 (oligopoliya)

¹⁹

²⁰ Manba: O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari va muallif hisob-kitoblari asosida tuzilgan. HHI va Lerner indeksi 30 ta yirik tijorat banki bo'yicha hisoblangan.

²¹ Tuzilma: muallif tomonidan O'zbekiston Markaziy banki rasmiy ma'lumotlari, "O'zbekiston — 2030" strategiyasi va PF-5992 Farmonidagi maqsadli ko'rsatkichlar asosida tuzilgan.



III bosqich	2003–2016	27–28 ta	Bank konsolidatsiyasi; minimal kapital talablari oshirildi (PQ-1930, 2013); 2008–09 inqiroz: davlat banklari qo'llab-quvvatlandi	Konsolidatsiya bosqichi; HHI $\approx$ 3 250–3 450; yangi raqiblarga kirish to'siqlari kuchaydi
IV bosqich	2017–2020	28–30 ta	Valyuta bozori liberallashti; "TBC Uzbekistan" kirdi; Click, Payme rivojlandi; PF-5992 islohot strategiyasi (2020)	Raqobat kuchaydi; HHI 3 250→3 180; CR5 71→69,2%; FinTech raqobatining dastlabki ko'rinishi
V bosqich	2021–2026	33–36 ta	Uzum Bank to'liq bank litsenziyasi (2024); Bazel III; "Ipak yo'li" islom banki; "O'zbekiston — 2030" strategiyasi	O'rtacha-yuqori raqobat; HHI $\approx$ 3 010; CR5 = 65,2%; Lerner $\approx$ 0,44; FinTech tizimli omilga aylandi

1-jadvalda aks ettirilgan besh bosqichli tasnif raqobat muhiti shakllanish jarayonining davomiyligi va murakkabligini ko'rsatadi. Har bir bosqichda muayyan institutsional yoki bozor o'zgarishlari raqobat muhitiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan.

Muhim metodologik kuzatuv shundan iboratki, raqobatni kuchaytirish faqat banklar sonining oshishi orqali ta'minlanmagan. Institutsional muhit ko'plab holatlarda bozor tuzilmasidan ham kuchliroq omil sifatida namoyon bo'lgan. Bu xulosa Stijn Claessens va Luc Laevenning xalqaro tajriba asosidagi ilmiy topilmalari bilan uyg'unlashadi²².

Bank tizimining so'nggi besh yillik dinamikasi alohida e'tiborga loyiqdir. Quyidagi jadvalda 2021–2025-yillardagi asosiy raqobat va moliyaviy ko'rsatkichlar dinamikasi ko'rsatilgan (2-jadval).

2-jadval

O'zbekiston bank sektori asosiy raqobat va moliyaviy ko'rsatkichlari dinamikasi (2021–2025)²³

Ko'rsatkich	2021	2023	2025	O'zgarish (2021→2025)
Jami tijorat banklari soni (ta)	33	35	36	+9,1%
Jami aktivlar (trln so'm)	387,0	728,4	1 106,5	+185,9%
Kreditlar hajmi (trln so'm)	218,5	437,2	649,3	+197,2%
Depozitlar hajmi (trln so'm)	134,2	268,9	412,7	+207,5%
Davlat banklari aktiv ulushi (%)	65,8	64,1	63,5	-2,3 p.p.
Davlat banklari kapital ulushi (%)	62,4	61,0	60,16	-2,24 p.p.
NPL ulushi (%)	5,8	4,9	4,1	-1,7 p.p.
Kapital yetariligi — CAR (%)	16,2	17,1	18,3	+2,1 p.p.
HHI — aktivlar bo'yicha	3 180	3 090	3 010	-5,3%
CR5 — aktiv ulushi (%)	69,2	67,8	65,2	-4,0 p.p.
Lerner indeksi (taxminiy)	$\approx$ 0,475	$\approx$ 0,459	$\approx$ 0,439	-0,036
Sof foiz marjasi — NIM (%)	4,8	4,3	3,9	-0,9 p.p.

2-jadvaldagi ma'lumotlar to'rtta muhim tendensiyaning ko'rsatadi.

Birinchidan, bank tizimi hajm jihatidan sezilarli o'sdi: aktivlar 185,9 foizga, kreditlar 197,2 foizga, depozitlar 207,5 foizga oshdi. Bu O'zbekiston iqtisodiyotining bank sektori orqali moliyalashtirilishi chuqurlashganini anglatadi.

Ikkinchidan, raqobat ko'rsatkichlari yaxshilandi: HHI -5,3 foizga, CR5 -4,0 foiz punktga, Lerner Index esa -0,036 punktga kamaydi. Yo'nalish ijobiy bo'lsa-da, o'zgarish sur'atlarini O'zbekiston — 2030 strategiyasi maqsadlariga muvofiq jadallashtirish maqsadga muvofiqdir.

Uchinchidan, davlat banklari aktivlar ulushining 2,3 foiz punktga pasayishi ijobiy holatdir. Biroq yillik o'rtacha 0,46 foiz punkt kamayish sur'ati bilan 2030-yilgacha 50 foizlik maqsadga erishish uchun xususiylashtirish jarayonlarini yanada faollashtirish zarur bo'lishi mumkin.

To'rtinchidan, sof foiz marjasining (NIM) 4,8 foizdan 3,9 foizga pasayishi raqobat intensivligining oshganini bilvosita tasdiqlaydi.

2026-yil holatiga ko'ra O'zbekiston bank tizimida raqobat muhitida beshta asosiy tendensiya yaqqol ko'zga

²²

²³ Manba: muallif tomonidan O'zbekiston Markaziy banki yillik hisobotlari (2021–2025) ma'lumotlari asosida tuzilgan.



tashlanmoqda.

Birinchi tendensiya — davlat banklari ulushining sekin, ammo barqaror qisqarishi. Aktivlar ulushi 2021-yildagi 65,8 foizdan 2025-yilga kelib 63,5 foizga tushdi, yillik o'rtacha kamayish sur'ati 0,46 foiz punktni tashkil etdi. Hozirgi sur'at bilan 2030-yil maqsadlariga erishish uchun xususiylashtirish jadvalini jadallashtirish muhim ahamiyatga ega.

Ikkinchi tendensiya — FinTech raqobatining sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarilishi. Uzum Bank 2024-yilda to'liq bank litsenziyasini oldi, Click esa 18 milliondan ortiq foydalanuvchiga ega. Bu holatning metodologik ahamiyati shundaki, HHI va Lerner indeksi asosan litsenziyalangan banklarni hisobga oladi. Shu sababli real raqobat darajasi an'anaviy ko'rsatkichlarda aks etganidan yuqoriroq bo'lishi mumkin. Bu esa "Raqamli raqobat indeksi" (RRI)ni joriy etish zaruratini ko'rsatadi.

Uchinchi tendensiya — kredit portfeli o'sishi va NPL nazorati o'rtasidagi muvozanat. Kreditlar 197 foizga o'sdi, NPL ulushi esa 5,8 foizdan 4,1 foizga tushdi. Bu ijobiy dinamikani saqlab qolish uchun kredit sifati monitoringini izchil davom ettirish muhimdir.

To'rtinchi tendensiya — prudensial talablarning kuchayishi va raqobatga ikki tomonlama ta'siri. CAR ko'rsatkichi 18,3 foizga yetdi va bu barqarorlikni ta'minlaydi. Shu bilan birga, Basel III talablari kichik banklar uchun moslashuv choralari talab qilishi mumkin.

Beshinchi tendensiya — xalqaro integratsiya va islom moliyasining rivojlanishi. Ipak Yo'li Bank islom moliyasi segmentida yangi raqobat maydonini shakllantirdi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekiston bank tizimi 1991–2026-yillarda monobank modelidan davlat banklari ustun mavqega ega bo'lgan oligopolistik bozorga transformatsiyalandi. Banklar soni 3 tadan 36 taga oshgan bo'lsa-da, aktivlarda davlat ulushi yuqori darajada saqlanib qolmoqda. 2017-yildan keyingi islohotlar natijasida raqobat sezilarli darajada kuchaydi. Bunda valyuta liberallasuvi, xorijiy banklarning kirib kelishi hamda FinTech kompaniyalarning rivojlanishi muhim rol o'ynadi.

Bank tizimida raqobat muhitini yanada takomillashtirishda quyidagi jihatlarni hisobga olish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

Davlat banklarini xususiylashtirish jarayonini jadallashtirish zarur. Hozirgi yillik o'rtacha 0,46 foiz punkt kamayish sur'ati bilan O'zbekiston — 2030 strategiyasida belgilangan 50 foizlik maqsadga belgilangan muddatda erishish murakkab bo'lishi mumkin. Shu bois xususiylashtirish jarayonini parallel ravishda kuchli prudensial nazorat bilan uyg'un holda olib borish lozim.

FinTech kompaniyalari va raqamli banklarni hisobga oluvchi "Raqamli raqobat indeksi" (RRI)ni ishlab chiqish zarur. An'anaviy HHI va Lerner Index ko'rsatkichlari Click, Payme va Uzum Bank kabi platformalarning ta'sirini to'liq aks ettira olmaydi. Bu esa real raqobat darajasini to'liq baholash imkoniyatlarini cheklaydi.

Yuqorida keltirilgan jihatlarga rioya etish O'zbekiston bank tizimida raqobatbardosh va barqaror muhitni yaratishga, shuningdek, milliy iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishini moliyaviy qo'llab-quvvatlash imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 12.05.2020 yildagi "2020 — 2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi PF-5992-sonli Farmoni, <https://lex.uz/docs/-4811025>
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 16.01.2020-yildagi "O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o'zgartirishlar kiritish, shuningdek, ba'zilarini o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblash to'g'risida (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash, faoliyati samaradorligini oshirish va kredit siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» 2018-yil 21-dekabrda PQ-4071-son qarori)" 30-sonli qarori, <https://lex.uz/docs/4701605>
3. F.I. Mirzayev. O'zbekistonda banklararo raqobatni shakllantirishning konseptual asoslari: Iqtisod fanlari doktori dissertatsiyasi avtoreferati. — Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi, 2009. — 41 b.
4. N.X. Jumayev. O'zbekiston banklarida kredit qo'yilmalarining tarkibi va ularni boshqarishdagi risklar // Iqtisodiyotda innovatsiya. — 2020. — №3.
5. Sh.Z. Abdullayeva. Bank risklari sharoitida tijorat banklarining kredit portfelini diversifikatsiyalash: Iqtisodiyot fanlari doktori dissertatsiyasi avtoreferati. — Toshkent: O'zR Bank-moliya akademiyasi, 2020. — 76 b.
6. O.B. Sattarov. O'zbekiston Respublikasi bank tizimi barqarorligini ta'minlash metodologiyasini takomillashtirish: Iqtisodiyot fanlari doktori dissertatsiyasi avtoreferati. — Toshkent, 2018. — 32 b.
7. O.A. Ortiqov. Tijorat banklari xizmatlar bozorida raqobatni rivojlantirish yo'llari: 08.00.07 — "Moliya, pul muomalasi va kredit" iqtisodiyot fanlari doktori (Doctor of Science) dissertatsiyasi avtoreferati. — Toshkent, 2024. — 24 b.



8. Thorsten Beck, Aslı Demirgüç-Kunt, Ross Levine. Bank concentration, competition, and crises: First results // Journal of Banking & Finance. — 2006. — Vol. 30, No. 5. — P. 1581–1603.
9. Stijn Claessens, Luc Laeven. What drives bank competition? Some international evidence // Journal of Money, Credit and Banking. — 2004. — Vol. 36, No. 3. — P. 563–583.
10. Rafael La Porta, Florencio Lopez-de-Silanes, Andrei Shleifer. Government Ownership of Banks // Journal of Finance. — 2002. — Vol. 57, No. 1. — P. 265–301.
11. Xavier Vives. Competition and Stability in Banking: The Role of Regulation and Competition Policy. — Princeton University Press, 2016. — 328 p.
12. Xalqaro Valyuta Jamg'armasi. Republic of Uzbekistan: Financial System Stability Assessment. — Washington: IMF, 2025.
13. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy sayti ma'lumotlari. www.cbu.uz

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100